

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

“TAVBAT UT-TOIBIN” ASARIDA MA’NAVIY KAMOLOT VA KOMIL INSON MASALALARINING FALSAFIY TAHLILI

Xudoyqulova Nargiz Abdullayevna

Urganch davlat tibbiyot instituti, kafedra mudiri, dotsent (PhD).

e-mail: nargizhudayqulova24@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-2903-2968>

Annotatsiya.

Maqolada Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning “Tavbat ut-toibin” asarida yoritilgan tasavvufiy maqomlarning falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Asarda tavba, zuhd, sabr, shukr, tavakkul, rizo va muhabbat maqomlarining inson ruhiy kamolotidagi o’rni ochib berilgan. Shuningdek, mutafakkirning komil inson haqidagi qarashlari, qalb va nafs tarbiyasiga oid g’oyalari hamda ularning zamonaviy jamiyat ma’naviy hayotidagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijasida “Tavbat ut-toibin” asarining tasavvuf falsafasi va ma’naviy tarbiya tarixidagi muhim o’rni asoslab beriladi.

Kalit so’zlar: Shayx Odina Muhammad Xorazmiy, Tavbat ut-toibin, tasavvuf, maqom, tavba, zuhd, sabr, tavakkul, komil inson, ma’naviy kamolot.

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ПРОБЛЕМ ДУХОВНОГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ И СОВЕРШЕННОГО ЧЕЛОВЕКА В ПРОИЗВЕДЕНИИ «ТАВБАТ УТ-ТОИБИН»

Худойкулова Наргиз Абдуллаевна

Ургенчский государственный медицинский институт, заведующий кафедрой, доцент (PhD).

Аннотация.

В статье анализируется философская сущность суфийских макамов, изложенных в произведении шейха Одины Мухаммада Хорезми «Тавбат ут-тоибин». Рассматриваются такие духовные ступени, как покаяние, аскетизм, терпение, благодарность, упование на Бога, довольство и любовь, а также их значение в процессе духовного совершенствования личности. Особое внимание уделяется концепции совершенного человека, проблемам воспитания души и нравственного очищения. Обосновывается значение данного произведения в истории суфийской философии и духовно-нравственного воспитания.

Ключевые слова: Одина Мухаммад Хорезми, Тавбат ут-тоибин, суфизм, макам, покаяние, аскетизм, терпение, упование, совершенный человек, духовное совершенство.

A PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE ISSUES OF SPIRITUAL PERFECTION AND THE PERFECT HUMAN IN THE WORK TAVBAT UT-TOIBIN

Xudoyqulova Nargiz Abdullayevna

Urgench State Medical Institute, Head of Department, Associate Professor (PhD).

Abstract.

This article examines the philosophical essence of the Sufi maqams described in Sheikh Odina Muhammad Khorezmi’s work Tawbat al-Taibin. The study analyzes spiritual stages such as repentance, asceticism, patience, gratitude, trust in God, contentment, and divine love, highlighting their role in the spiritual perfection of the individual. Particular attention is given to the concept of the perfect human being, the purification of the soul, and moral self-development. The research demonstrates the significance of this work in the history of Sufi philosophy and spiritual education.

Keywords: Odina Muhammad Khorezmi, Tawbat al-Taibin, Sufism, maqam, repentance, asceticism, patience, trust in God, perfect human being, spiritual perfection.

Kirish. Shayx Odina Eshonning “Tavbat ut-toibin” asarida tasavvufiy maqomlar talqini ochib berilgan. Asarning umumiy mohiyatiga qaralganda, asar nomidan ham ko’rinib turibdiki, u avvalo tavba masalasiga bag’ishlangan bo’lib, alloma tasavvufda tavba ruhiy sayrning birinchi va zaruriy bosqichi ekanini alohida ta’kidlaydi. Kitobda insonning Haqqa yaqinlashuvi jarayoni izchil ko’rsatiladi va bu yo’lda bosib o’tishi kerak bo’lgan maqomlar sharhlanadi.

Asarda yoritilgan asosiy maqomlar **7 ta** bo'lib, birinchisi **tavba maqomi** — ruhiy sayrning boshlanish nuqtasi hisoblanadi. Tavba gunohdan qaytishgina emas, balki qalbning tubdan yangilanishi va poklanishi, nafs hamda dunyoviy xirs ustidan kurashning boshlanishi ekanligi ochib berilgan. Alлома talqinida chin tavba — qaytmaslik sharti bilan qilinadigan tavbadir.

Ikkinchisi **zuhd maqomi** — dunyoga ortiqcha bog'lanmaslikdir. Aslida, zuhd dunyo ne'matlarini rad etish emas, balki ularga haddan tashqari berilib ketmaslik sifatida sharhlanadi. Bu maqom bandani pok rizq topishga, halollik va qanoat yo'liga boshlashi uqtiriladi. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy **"Mir'ot ul-obidiyn"** ("Obid insonlar ko'zgusi") asarida o'zini zuhd maqomida deb biladigan, ammo botini buzuk insonlarga shunday ta'rif beradi: **"Botinning buzilishi shaytoniy tajalliy hamda nafs-u havoning yomonliklari orqali yuzaga keladi. Har bir qalbi ko'r muqallidkim, uning basirat ko'zi qadim nuri bilan munavvar bo'lmagan ekan, garchi ilm va zuhd bilan ziynat topgan bo'lsa-da, undagi nur shaytoniy tajalliydir"** [1, 316-b.].

Uchinchisi **sabr maqomi** — har qanday sinovda sabr qilish komillik belgisi sifatida ta'riflanadi. Asarda sabrning uch darajasi keltiriladi: **musibatda sabr, ibodatda sabr va ilohiy muhabbat yo'lida sabr**.

To'rtinchisi **shukr maqomi** — bandaning Alloh bergan ne'matlarni qadrlashi va undan rozilik bildirishidir. *****"Tavbat ut-toibin"*****da shukr sabr bilan yonma-yon keltiriladi. Shukr — qalbning kengligi, sabr esa qalbning mustahkamligi sifatida qaraladi. Biri ikkinchisini to'ldiruvchi vazifani bajaradi.

Beshinchisi **tavakkul maqomi** — asarda tavakkul **"Allohgacha ishonch va tayanish"** sifatida talqin qilinadi. Biroq bu ishonch insonni amaldan to'xtatmaydi, balki mehnat qilgan holda natijani Haqdan kutishni anglatadi.

Oltinchisi **rizo maqomi** — inson Allohning qadariga rozi bo'lish darajasiga ko'tariladi. Bu maqomda shaxs dunyoviy hodisalarni ham, musibatlarni ham Haqning irodasi sifatida qabul qiladi.

Yettinchisi **muhabbat maqomi** — tasavvufiy maqomlarning cho'qqisi sifatida ilohiy muhabbat ko'rsatiladi. Bu maqomda insonning qalbi Alloh muhabbati bilan to'lib, boshqa barcha sevgilar undan keyingi o'rinda bo'ladi. Muhabbatning oxirgi natijasi **"fano filloh"** (Allohdagi yo'q bo'lish) va **"baqo billoh"** (Allohdagi boqiylik topish) bilan yakunlanadi.

Asarning falsafiy mohiyati ochib berilganda, unda maqomlar **ontologik yo'l** sifatida talqin etiladi: inson mavjudlikning quyi darajasidan oliy darajaga ko'tariladi. Shuningdek, **aqliy va qalbiy uyg'unlik** maqomlarning faqat aqliy tushunchalar emas, balki qalbiy tajribalar orqali anglanishini ifodalaydi. **Komil inson** shakllanishida esa maqomlarning yakuniy natijasi insonni komillikka yetkazish bilan baholanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Shayx Odina Eshonning **"Tavbat ut-toibin"** asarining ma'naviy va bugungi kun uchun dolzarb ahamiyatli tomoni shundaki, u insonni sabr, shukr, qanoat va halollikka o'rgatish bilan birgalikda, ruhiy sayrning bosqichlari orqali inson mohiyatini tushuntiradi va uni yuksaltirishni nazarda tutadi hamda bugungi davr yoshlarining axloqiy tarbiyasida, ruhiy-ma'naviy barqarorligini mustahkamlashda metodologik manba bo'la oladi. **"Tavbat ut-toibin"** asari tasavvufiy maqomlarni izchil sharhlab, insonning tavbadan muhabbatgacha bo'lgan ruhiy yo'lini ko'rsatib beradi. Unda tavba — boshlanish, muhabbat esa oliy cho'qqi sifatida talqin qilinadi. Asarning falsafiy mohiyati shundaki, u insonning ichki dunyosini o'zgarishga chorlaydi va uni komillikka yetaklovchi ruhiy qo'llanma sifatida qadrlanadi.

Mazkur paragrafda Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning **"Tavbat ut-toibin"** (**"Tavba qiluvchilarning tavbasi"**) asarida ilgari surilgan tasavvufiy maqomlarning falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Asarda tasavvuf yo'lida muridning qalbiy poklanishi, nafsni jilovlashi, sabr va shukr kabi axloqiy fazilatlarini o'zlashtirishi hamda komillikka intilishi alohida e'tibor markazida turadi. Xususan, Shayx Odina Muhammad Xorazmiy Najmiddin Kubro, Jaloliddin Rumi, Imom G'azzoliy va Ibn Arabiyaning ta'limotlaridan ijodiy foydalangan holda, ularni o'z davrining ma'naviy ehtiyojlari va xalq dunyoqarashiga mos ravishda sharhlab bergan.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning **"Tavbat ut-toibin"** asarida alohida o'rinlarda komillik haqida fikr yuritilib, komil va mukammal oriflarning dillaridan janobi Haq taolo sari tuynuk ochilgan bo'lib, bu tuynukdan komillarning qalblariga fayz va futuh kelib turadi. Shuningdek, baxtiyor toliblarning dillariga ham yo'l ochilgan bo'lib, bu tuynukdan komillarning dillaridan qobillarning dillariga fayz-u futuh yetib boradi. Chunonchi, aytilgan: **"Qalbdan qalbgacha yo'l bor, qalbdan Rabbgacha yo'l bor"**. Chunonchi, toliblarning qalbidan muhaqqiqlarning qalbi sari tuynuk ochilgan, shu kabi muqallidlarning kuchiga yarasha toliblarga ham kuch beradi. Chunonchi, hazrati Mavlaviy, sirlari muqaddas bo'lsin, bayon qilganlar: [2, 15-b.].

Asosan, paragrafda **"Tavbat ut-toibin"** asarining tuzilishi, unda yoritilgan shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat bosqichlari keng ko'lamda o'rganiladi. Ayniqsa, **"qalb ko'zgusi"** metaforasi, sabr va shukrning falsafiy talqini, nafsni tarbiyalashning ahamiyati hamda komil inson konsepsiyasi chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning metodologik asosini qiyosiy-falsafiy yondashuv, Qur'on va hadislar, shuningdek, tasavvufiy adabiyotlarning tahlili tashkil etadi.

MUHOKAMA.

Natijada Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning **"Tavbat ut-toibin"** asarining tasavvuf tarixidagi o'rni va bugungi davr uchun ma'naviy-tarbiyaviy saboqlari ochib beriladi. Ushbu meros hozirgi jamiyatda ham ruhiy poklik, insoniylik va ma'naviyatni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sharq ma'naviyati tarixida tasavvufning o'rni beqiyosdir. Tasavvuf — bu shunchaki diniy yo'nalish emas, balki inson qalbini komillikka eltuvchi, ma'naviy poklanish, nafsni yengish va ilohiy haqiqatga yaqinlashuvni o'zida mujassam etuvchi falsafiy-ma'naviy tizimdir. Tarixiy jarayonlarda tasavvuf insoniyatning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda, jamiyat hayotini ma'naviy va axloqiy jihatdan mustahkamlashda muhim rol o'ynagan.

Xususan, Markaziy Osiyo hududi, jumladan, qadimiy Xorazm zaminida tasavvufiy maktablarning shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq muhim jarayonlar yuz bergan. Bu hududdan yetishib chiqqan mutasavvif olimlar — Najmiddin

Kubro, Bobo Kamol, Shayx Odina Muhammad Xorazmiy, Xoja Ahmad Yassaviy va ularning izdoshlari islom falsafasini boyitib, xalq ma'naviyatiga chuqur ta'sir ko'rsatgan. XVIII asrda yashab ijod qilgan Shayx Odina Muhammad Xorazmiy ham ushbu ma'naviy zanjirning davomchisi sifatida tasavvuf tarixiga o'zining alohida hissasini qo'shgan.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiy Xorazm hududida yashagan va ijod qilgan mutafakkir sufi bo'lib, u o'z davrida ilm-fan, adabiyot va tasavvufiy tafakkur rivojiga salmoqli hissa qo'shgan. U Najmiddin Kubroning ruhiy merosidan, Jaloliddin Rumiy, Fariddin Attor va Imom G'azzoliy kabi mutafakkirlarning asarlaridan ilhom olgan.

NATIJALAR.

XVIII asr Xorazmi ijtimoiy-siyosiy jihatdan murakkab davr edi: siyosiy beqarorlik, iqtisodiy inqiroz va tashqi tahdidlar jamiyat ruhiyatiga ham ta'sir ko'rsatgan. Shu sharoitda Shayx Odina Muhammad Xorazmiy **"Tavbat ut-toibin"** asarini yozib, insonlarni sabr, shukr, tavozu, halollik va ixlos asosida yashashga, ruhiy poklanishga chaqirdi.

"Tavbat ut-toibin" nomi bilan mashhur bo'lgan ushbu asar asosan tasavvufiy maqomlarni xalq tilida, sodda va ravon ifodalash maqsadida yozilgan. Muallif zamonasidagi ijtimoiy beqarorlik, insoniy qadriyatlarining susayishi va odamlarda dunyo havasining kuchayishini ko'rib, ularga ruhiy yo'l ko'rsatish zarurligini his qilgan.

Asarda Qur'oni karim oyatlari va Rasululloh (s.a.v.) hadislaridan ko'plab iqtiboslar keltiriladi. Shu bilan birga, u Rumiyning **"Masnaviy"**, Najmiddin Kubroning **"Favoih ul-jamal"**, Attor va Sanoiy asarlaridan ijodiy foydalanadi. Biroq Shayx Odina Muhammad Xorazmiy o'z sharhlarida xalqning tili va dunyoqarashini hisobga olgan holda murakkab falsafiy tushunchalarni oddiy tilda izohlaydi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning **"Tavbat ut-toibin"** asarida tasavvufiy maqomlarning qanday falsafiy mazmun kasb etishini ochib berishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- asarning tuzilishi va bo'limlarini ilmiy tahlil qilish;
- tasavvufiy maqomlarning (tavba, zuhd va taqvo, sabr, shukr, rizo, fano va baqo) mazmunini sharhlash;
- qalb va nafs tarbiyasining falsafiy jihatlarini ko'rsatish;
- Shayx Odina Muhammad Xorazmiy qarashlarini Ibn Arabiy, Rumiy, Attor va Najmiddin Kubro ta'limotlari bilan qiyoslash;

- asarning bugungi ma'naviy hayotimizdagi dolzarbligini ochib berish.

Maqomatlarning mukammal o'ntaligini Shayx Najmiddin Kubro sharhlab, asoslab bergan hisoblanadi. Xususan:

TAVBA – ushbu yo'lga kirgan solik uchun barcha amallarning boshi hisoblanadi. O'zining o'tmishda qilib o'tgan xato-yu nuqsonlari hamda gunohlarini anglab, Alloh taolo oldida tavba qilgan va bundan keyingi hayotini xayrli, ezgu ishlarga bag'ishlagan insongina tariqat olamiga kira oladi. Tavba bu solikning o'z xohishi bilan Haq taolaga yuzlanishi, o'z irodasi bilan Uni sevishi va o'zining "Men"idan voz kechishidir. Xudo tomon yuz burgan barcha insonlar har qanday gunohdan tavba sababli forig' bo'ladi. Zero, gunoh bandani Alloh taolodan yiroqlashtiruvchi amaldir.

1. ZUHD – taqvo, parhez demak. Ushbu yo'lga kirgan odam endi haromdan tiyilmog'i hamda Alloh man qilgan gunohlardan o'zini saqlamog'i vojib bo'ladi. Zuhd – insonni bu dunyoda ham, uning tashqarisida ham nimaiki lazzat tomon undasa, bularning barchasidan tiyilishdir. Bunda kishi o'z nafsini taftish qilmog'i, uni haddidan oshishiga yo'l qo'ymasligi, uni aql-u idrok tizgini bilan jilovlab, riyozatga solmog'i lozim bo'ladi. Zuhdning asl mohiyati dunyoga ham, oxiratga ham rag'bat bildirmaslikdir. Yillar mobaynida ezgu ishlar bilan band bo'lib, yer ishlari bilan shug'ullanmoqdir.

2. TAVAKKUL – o'z amallari, fikri va ishlarida yolg'iz Allohga suyanish demakdir. Har qanday holatda, ya'ni yaxshilik kelganda ham, yomonlik kelganda ham isyon qilmaslik hamda shukr qilishdir. Ya'ni, barcha ishlarini Allohning ixtiyoriga topshirib, Undan o'zgasiga muhtoj bo'lmaslikdir. Kishining bu dunyoga rag'bat qo'yishi mol-dunyo to'plash yoki biron mansab, martabaga erishish uchun tashabbus qilishiga sabab bo'ladi. Tavakkul esa Allohga chin dildan ishonch bo'lib, Uning ulug'vorligiga iymon keltirish, mosuvodan ko'ngilni butkul uzishdir. Maqsadga yetish asnosida tavakkul eng ilg'or darajali ahamiyat kasb etadi.

3. QANOAT – tirikchilik uchun eng zarur bo'lgan moddiy ehtiyojlardan tashqari har qanday nafsoniy va hayvoniy istaklardan jonsiz vujud singari yiroqlashmoq, yeyish-ichishda hamda uy-joy borasida isrofgarchilik qilmaslik, xususan, taomga qattiq xirs qo'ymoqdan saqlanish demakdir. Ya'ni, o'ziga jalb qiladigan, nafsoniy xirsni qo'zg'aydigan barcha noz-ne'matlaridan yiroq bo'lmoq. Jumladan, qimmatbaho kiyimlarga ruju qo'yish, taomni ko'r iste'mol qilish, o'yin-kulguga mukkasidan ketish, bekorchilik va tanballik va h.k. [3, 101-b.].

4. UZLAT – so'fiylarning chilla o'tirishlari, ya'ni yolg'izlikka, xilvatga chekinishlaridir. Kubroviy ta'limotiga ko'ra, insonning ruhi poklanishga moyil bo'lsa, tabiiyki, yakkalanish va go'shanashin bo'lishni talab qiladi. Agarda u mana shu bosqichlarni bosib o'tmaydigan bo'lsa, mutlaqo poklanmaydi. Ya'ni, uzlatga chekinishdan maqsad ham Allohning rizoligi bo'lmasa, yolg'izlanishdan ma'naviy yuksalishga erisha olmaydi. Uzlatning asl maqsadi his-tuyg'uni jilovlashdir. Yolg'izlanish solikning hissiyotlari jilovlanishiga sabab bo'ladi. Ammo Naqshbandiya tariqati rashhalaridan biri **"Xilvat dar anjuman"** ("Anjuman ichra xilvat") bo'lib, zohiran xalq bilan birga bo'lmoq, botinan esa Haq taolo yodida bo'lmoqdir. Ushbu rashhaga binoan Ulug' Holiq yaratgan xalq xizmatida doimo hozir bo'lishlik, xalq g'amini chekishlik orqali ham inson Haqning roziligiga erishadi. Shuningdek, rivoyat qilinishicha, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ham odamlar orasida bo'lib, ularga aralashib yurishni hamda ulardan yetadigan har qanday ozorlarga sabr qilishni afzal bilgan ekanlar [3, 102-b.].

5. TAVAJJUH – Alloh tomonga yo'nalish (tavajjuhi tom), ya'ni o'lik misoli Yaratgandan o'zga har qanday borliqqa da'vat qiluvchi narsalardan yuz o'girmoq demakdir. Bu o'rinda so'fiy uchun Allohdan boshqa hech qanday matlub (talab qilingan), mahbub (sevikli) va maqsad yo'qdir. Ushbu usul Naqshbandiya tariqatidagi **bozgasht** rashhasiga muvofiq keladi. Unga ko'ra, zikr asnosida solik: **"Xudovando, maqsudim an tuyi, rizoyim an tuyi!"**, ya'ni: **"Xudoyo, mening**

maqsadim Sensan, talabim Sening rizoligingdir!" [4, 173-b.] deya Yaratganga iltijo qiladi [3, 103-b.].

6. SABR – solikning e'tiqodi va niyatini sinashdan iborat. Haq yo'li og'ir, mushkul va mashaqqatli yo'ldir. Bu yo'lda solik uchun har qadamda mashaqqat, odamlar tomonidan keladigan malomat va iztirob bisyordir. Uning azob-u iztiroblariga chidagan kishilargina maqsadga erishadi. Ya'ni, har qanday balo-yu malomat yog'lsa ham nolinmaydi, aksincha, boshiga keladigan ofat-u balolar Alloh taoloning qazo-yu qadaridan o'zga narsa emas, deb qaraydi. Ushbu usulga ko'ra, solik nafs qutqusidan, garchi ko'p riyozatlar chekib bo'lsa-da, o'zini olib qochadi. Bundan maqsad dil va qalbning kuduratlardan batamom poklanishi, ruh esa nafs iskanjasida zanglab, xiralashgan bo'lsa, jilolanishidir.

7. MUROQABA – kuzatish, tafakkurga berilish. Tavba-tazarru qilib, Alloh taolo yodi bilan bo'lmoq, sabr-u sadoqat bilan o'zining ma'rifatini oshirish mobaynida solik qalbi shunday osoyishta holga keladiki, Alloh diydori ishqida tafakkurga g'arq bo'ladi va ruhan butun olamlarni sayr qilib chiqadi. Demak, qalbni bo'lar-bo'lmas his-tuyg'ulardan holi qilib poklash va xotirjamlikka erishmoq juda muhimdir. Hazrat Bahouddin Balogardon (q.s.) **"Vuqufi zamoniy"**, ya'ni zamonga to'xtash rashhasi (fasli)ni o'z ta'limotlariga kiritganlar. Bundan murod, tolib o'tayotgan zamonini nazorat qilmog'i, agar qalbi Alloh taoloning zikri bilan huzur olayotgan bo'lsa, shukr qilishi va aksincha, g'afolat bilan o'tayotgan bo'lsa, qattiq pushaymon bo'lmoq'i lozim bo'ladi [4, 174-b.]. Demak, vuqufi zamoniy – kishining o'z nafsini hisobga tortishi uchun zarur bo'lgan usullardan biridir.

8. ZIKR – tariqatga kirgan odam har yerda, har doim Allohning ismlarini takrorlab turishi bilan qalbiga Alloh taoloning sifatleri va zoti joylashadi. Natijada shaytoniy vasvasalar, nafsoniy va shahvoniy istaklar undan yiroqlashadi. Ularning o'rnini rahmoniy sifatlar, oliyjanob insoniy fazilatlar egallaydi. Xuddi mehmon tashrif buyuradigan xonadon ozoda, saranjom-sarishta qilingani singari, zikr vositasida inson qalbi barcha gina, kudurat, adovat, g'afolat va jaholat kabi illatlardan butkul holi bo'ladi. Qalbda faqat Allohga bo'lgan muhabbat va ishq hosil bo'ladi. Bu o'rinda Hazrati Bahouddinning **"Vuqufi qalbiy"** (qalbgaga to'xtash) usuliga murojaat qilsak, uning ikki xil ma'nosi mavjuddir.

Birinchisi: zikr vaqtida zokirning qalbi Alloh taolodan ogoh bo'lgan holda zikr qilishi, ya'ni uning holatini Alloh taolo bilib turishini his qilishi;

Ikkinchisi: zokir hamisha qalbini nazoratga olib turishidir. Bunda Naqshbandiyaning muborak: **"Qo'ling ishda, qalbing Alloh yodida bo'lsin"** degan mashhur shioriga to'la amal qilish nazarda tutiladi.

9. RIZO – ushbu usul yo'llarning eng oxirigisi bo'lib, unga kirgan solik Allohning qudratini, Uning ilmini chuqur his qilgan holda o'zini Unga butkul topshiradi va Alloh olami bilan huzurlana boshlaydi. Natijada Haq taolo unga, u esa Haq taologa yaqinlasha boradi, ya'ni qurbat hosil qiladi. Kim Allohga yaqinlashsa, uning ko'radigan ko'zi, eshitadigan qulog'i bo'ladi. Endi nimaiki uning fe'lidan sodir bo'lsa, zohiran bandadan ko'rinadi-yu, aslida uning ijodkori Yaratganning O'zi bo'ladi.

XULOSA.

Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning **"Tavbat ut-toibin"** asari tasavvufiy maqomlarning mohiyatini izchil yoritib beruvchi muhim manbalardan biridir. Asarda tavba, zuhd, tavakkul, sabr, qanoat, muroqaba, zikr va rizo kabi maqomlar insonning ruhiy kamolot sari bosib o'tadigan yo'li sifatida talqin etiladi. Mutafakkirning qarashlarida komil inson g'oyasi markaziy o'rin egallab, qalb pokligi, nafs tarbiyasi va ilohiy muhabbatga erishish masalalari bilan uzviy bog'lanadi. Mazkur asar nafaqat tasavvuf tarixini o'rganishda, balki bugungi kunda yoshlarni ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash, ularda sabr, shukr, qanoat va halollik kabi fazilatlarni shakllantirishda ham muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy. *Miftox ul-asror* (N. Komilov tarjimasi: *Sirlar kaliti*). – Toshkent: Musiqi nashriyoti, 2006. – B. 316.
2. Shayx Odina Muhammad Xorazmiy. *Tavbat ut-toyibin* (forsiydan M. Hasaniy tarjimasi: *Tavba qiluvchilarning tavbasi*). – Toshkent: O'FA Sharqshunoslik instituti bosmaxonasi, 2006. – B. 15.
3. Jabborov I. J. *Shayx Najmiddin Kubro komillik timsoli* nomli monografiya. – Buxoro: Durdona, 2025. – B. 101–102, 104.
4. Abduqahhor Shoshiy. *Avliyolar kitobi*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2018. – B. 173–174.